

BAXTSIZ HODISALARDAN OILAVIY EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. SUG'URTA HODISASI

1.1. Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida yuz bergan quyidagi hodisalar sug'urta hodisalari hisoblanadi:

- Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayiblanishi);
- Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli o'limi.

1.2. Baxtsiz hodisaga - Sug'urtalangan shaxsning hohish irodasiga bog'liq bo'Imagan holda kutilmagan hodisalar natijasida tananing jarohatlanishi, jarohatlanish natijasida tana a'zolarini ishslash funksiyasini o'zgarishi yoki o'limga olib keluvchi tabiatda bo'ladigan hodisalar: kuyish, muzlab qolish, cho'kish, (shamollah va kasallik tufayli vafot etishdan tashqari), elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari (tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko'chki, do'l, juda kuchli qor yog'ishi), portlash hamda hayvonlar tajovuzi, tishlashi, chaqishi natijasida shikastlanishlar, g'araz niyatli shaxsni hujumi, Sug'urtalangan shaxsning yiqlishi yoki ustiga biror bir jismni tushib ketishi, jismning urilishi, transport vositalarining (avtomobil, poyezd, tramvay va boshqalarni) ag'darilishi yoki ularning harakati vaqtida yo'l transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdag'i asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, tasodifan nafas olish yo'liga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli o'simliklar, kimyoiy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanish, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, bo'g'im va to'qimalarning uzilishi, tana a'zolarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi kiradi.

1.3. Sug'urtalangan shaxsga baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayib bo'lishi)ga to'lanadigan Sug'urta puli miqdori Jamiyat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisasi natijasida tan jarohati olishi bo'yicha sug'urta puli miqdorini aniqlash jadvali"ga binoan davolash muassasasining hujjatlari asosida, shikastlanishni turiga qarab, Sug'urta pulidan shikastlanish darajasi foizi hisobida aniqlanadi.

1.4. Sug'urtalangan shaxs vafot etganda Manfaatdor shaxsga yoki Sug'urtalangan shaxsning vorislariiga Sug'urta puli to'liq to'lanadi. Sug'urtalangan shaxs o'limi tufayli to'lanadigan sug'urta pulidan baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayib bo'lishi)ga ilgari to'langan to'lov chegirib qolinadi.

II. QUYIDAGILAR SUG'URTA HODISASI HISOBLANMAYDI

a) Baxtsiz hodisa tufayli Sug'urtalangan shaxsning shikastlanishi (mayib bo'lishi) yoki o'limi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ro'y berganda;

b) Barcha hildagi o'tkir surunkali va nasliy kasalliklar (shu jumladan infarkt, insult va to'satdan a'zolarni kasallanishi, kasallikni nasldan naslga o'tish natijasida uni rivojanishi), anafilaktik shok va oziq - ovqat toksikoinfeksiyasi (salmonellez, ichburug' va boshqalar);

d) Sug'urta shartnomasi (polisi) amalda bo'lgan paytda yuz bergan Sug'urta hodisasi tufayli olib borilgan davolash bilan bog'liq bo'Imagan kasallikni davolash (tashxis qo'yish) va oldini olish tadbirleri (dori yuborish);

e) Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan)ning qasddan o'z hatti-harakatlari natijasida olgan jarohati yoki o'limi tergov yoki sud tashkilotlari tomonidan qasddan sodir etilgan deb topilsa;

f) Sug'urtalangan shaxs alkogolli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar ta'sirida mast holatda ichki yonuv dvigatelli yoki elektr dvigateli ega bo'lgan har qanday o'zi yurar vositalar (avtomashina, mototsikl, motoroller, moped, motorli velosiped, kater yoki motorli qayiq, traktor, kombayn, trolleybus, tramvay va hakazolar)ni boshqarishi, shuningdek ana shu vositalarni boshqarishni spirtli ichimlik, giyohvand va zaharli moddalar ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxsga berishi oqibatida yuzaga kelgan jarohat yoki o'lim;

g) Sug'urtalangan shaxsning o'ziga qasddan yetkazgan tan jarohati;

h) Yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish ta'sirida, harbiy harakatlar, harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, halq ko'tarilishini har hil turlari oqibatida olingan tan jarohatlar yoki o'lim;

i) Mehnatni himoya qilish qoidalari va sanoat sanitariyasi me'yorlarini, texnika xavfsizligini qo'pol ravishda buzish, Sug'urta qildiruvchi tomonidan xavfsizlik shartlarini va Sug'urtalanganlarning mehnatini muhofaza qilish yuzasidan nazorat o'rnatilmaganligi natijasida olingan jarohat yoki o'lim;

j) Qarilik tufayli vafot etish sug'urta hodisasi hisoblanmaydi.

III. SUG'URTA PULINI OLİSH UCHUN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR

3.1. Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan baxtsiz hodisalar natijasida sog'lig'iga zarar yetkazilganligi to'g'risida Sug'urtalovchiga 30 (o'ttiz) kun ichida xabar qilishi lozim.

3.2. Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs Sug'urtalovchiga murojaatida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi shart:

-Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urta puli/ta'minotini olish uchun ariza;

-Sug'urta polisi;

-Shaxsni tasdiqlovchi xujjat;

-Sug'urta hodisasi yuz bergenligini tasdiqlovchi davolash muassasasining ma'lumotnomasi.

3.3. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da ko'rsatilgan baxtsiz hodisalar natijasida vafot etganda:

-Manfaatdor shaxs (voris)ning arizasi;

-Sug'urta polisi;

-FXDYO bo'limidan O'lim to'g'risidagi guvohnoma yoki uning notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

-Vorislik huquqi to'g'risida notarial idora tomonidan tasdiqlangan guvohnoma nusxasi;

-Sug'urta qildiruvchining/vorisning shaxsini tasdiqlovchi hujjat.

Taqdim qilingan hujjatlarni sug'urta pulini to'lash bo'yicha qaror qabul qilishga imkon bermagan hollarda Sug'urtalovchi yakuniy hulosani qabul qilish uchun zarur qo'shimcha (rentgen surati, tergov tashkilotlarining hujjatlari va boshqa) hujjatlarni so'rash huquqiga ega.

3.4. Sug'urta polisida ro'yxatni ko'rsatilgan sug'urtalangan shaxslar bilan hodisa yuz berganda, to'lanadigan sug'urta puli umumiy sug'urta puli miqdorini mos ravishda kamaytirib boradi. Bir vaqtning o'zida polisda ko'rsatilgan ikki va undan ko'p shaxslar bilan bog'liq hodisa yuz berganda, sug'urta puli jami to'lov miqdoriga mutanosib tarzda amalga oshiriladi.

IV. TO'LOV MUDDATI

4.1. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lган barcha ma'lumotlar va hujjatlarni to'liq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlarni o'rganib chiqiladi va 15 kun ichida sug'urta hodisasi yuz bergenligi yoki yo'qligi to'g'risida dalolatnomani tuziladi. Sug'urta hodisasi yuz bergenligi aniq bo'lsa, komissiya sug'urta puli miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi.

4.2. Sug'urta puli/ta'minoti dalolatnomasi imzolangan kundan 5 (besh) bank kuni ichida Sug'urtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs)ning bankdagi omonat daftarchasiga yoki plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

4.3. Sug'urta qildiruvchining shartnomani (polisni) bekor qilish bo'yicha yozma murojaatiga ko'ra, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga shartnomaning o'tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sug'urtalovchining sug'urta ishini yuritish bilan bog'liq bo'lган sug'urta mukofotining 25 foizi miqdorida xarajatlari qaytariladigan sug'urta mukofotidan chegirilib qolinadi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ning huquqlari:

a) Sug'urta hodisasi ro'y berganda uning foydasiga tuzilgan Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchi olgan javobgarlikni olib borishni talab qilish;

b) Sug'urtalovchi Sug'urta pulini to'lashni rad etganda unga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirish;

d) Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish uchun Sug'urtalaovchiga ariza bilan murojaat qilish.

5.2. Sug‘urta qildiruvchi (Sug‘urtalangan shaxs)ning majburiyatları:

- a) zarur hollarda Sug‘urtalovchiga qarashli shifokor-ekspertga jabrlangan Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘ini holati va kasallik tarixini o‘rganishga ruxsat berish;
- b) Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda Sug‘urta qildiruvchi (Sug‘urtalangan shaxs) o‘ziga ma’lum bo‘lgan, Sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi ehtimolini va uni yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug‘urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Sug‘urtalovchiga xabar qilish;
- c) Sug‘urta qildiruvchi oila a’zolari to‘g‘risida to‘g‘ri ma’lumot berish;
- d) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urta hodisasi yuz berganda, Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan vaqtdan 30 (o‘ttiz) kundan kechikmay Sug‘urtalovchini yoki uning agentini yozma ravishda xabardor qilish.

5.3. Sug‘urtalovchining majburiyatları:

- a) Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urta qildiruvchiga (Manfaatdor shaxsga yoki vorislariga) sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatda va tartibda (kerakli xujjatlarni rasmiylashtirgandan so‘ng) Sug‘urta pulini amalga oshirish;
- b) Sug‘urta pulini rad etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan hollarda bu haqda Sug‘urta qildiruviga yozma ravishda xabar berish;
- c) Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta shartnomasi (polisi) muddati davomida sug‘urtaga oid maslahatlar berish;
- d) Sug‘urta qildiruvchiga (Sug‘urtalangan shaxs)ga Sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng elektron sug‘urta polisi rasmiylashtirib berish;
- e) Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urta qildiruvchiga (vorislariga) sug‘urta qoidalarida belgilangan muddatda va tartibda Sug‘urta puli/ta’motini amalga oshirish;
- f) Sug‘urta qildiruvchiga nisbatan maxfiylikni ta’minalash;

5.4. Sug‘urtalovchining huquqlari:

- a) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng Sug‘urtalovchiga bila turib (sog‘liq va Sug‘urta xavfiga oid) yolg‘on ma’lumotlar bergenligi aniqlansa, Sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topish;
- b) Sug‘urtalovchi o‘ziga qarashli shifokor-ekspertni jabrlangan Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘ini holati va kasallik tarixini o‘rganish uchun yuborish;
- c) Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchining sog‘lig‘ini haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirish;
- d) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalangan shaxs o‘zining sog‘lig‘ini holatini Sug‘urtalovchiga qarashli shifokor - ekspertni tekshirishiga yo‘l qo‘ymasa, Sug‘urtalovchi Sug‘urta pulini to‘lashni rad etish;
- e) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalangan shaxs o‘zining sog‘lig‘ini holatini Sug‘urtalovchiga qarashli shifokor - ekspertni tekshirishiga yo‘l qo‘ymasa, Sug‘urtalovchi Sug‘urta pulini to‘lashni rad etish;
- f) Sug‘urtalovchi Sug‘urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan to‘langan pulini undirish uchun sudga da’vo kiritish.